

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MUHITIDA PEDAGOGLAR MALAKA OSHIRISH KURSLARI MAZMUNINI TEZKOR YANGILAB BORISH MEXANIZMI

U.Begimqulov,
O'zMU professori
I.Choriev, T.Achilov,
TDPU

Mustaqillik yillarida professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida muayyan ishlar, jumladan, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuni yangilandi, Davlat talablari asosida maqsadli va muammoli kurslar tashkil etishning metodik ta'minoti ishlab chiqildi.

Mustaqil malaka oshirish uchun o'quv materiallarini tezkor yangilab borish tizimining joriy qilinishi ta'lim muassasida malaka oshirayotgan barcha tinglovchilarni qamrab olishi, ularning o'quv faoliyatini nazorat qilish, ular bilan malaka oshirish muassasidan keyingi kasbiy faoliyati davomida olib borayotgan o'quv tarbiya jarayonidagi ishlarning ta'sirchanligi va samarasiga baho berish imkonini beradi.

Mustaqil malaka oshirish o'quv kurslari mazmunini tezkor yangilab borishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- uzluksiz yaratuvchanlik faoliyatini oqilona uyg'unlashtirish yo'li bilan olingan bilimlarni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradigan amaliy yo'nalganligini ta'minlash;
- rivojlanib boruvchi ta'lim bosqichlarining mazmunan uzviyligi – umumiy, ijtimoiy va kasbiy ta'limning yagonaligi;
- ta'lim mazmunini integratsiyalash yo'li bilan bilimlar yaxlitligini ta'minlash;
- ta'lim dasturlari darajasi va yo'nalishini tanlash sharti sifatida ta'lim mazmunini kasbga yo'naltirish va tabaqalashtirish;
- ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi va individualligini ta'minlash;

○ ta'lim mazmunini bevosita shaxsga yo'naltirish va ta'lim oluvchilarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud imkoniyatlarini rivojlantirishda ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda malaka oshirishni individuallashtirish;

○ fundamentallik, ta'lim mazmunida olinadigan bilimlar ko'lamini oshirish, asosiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, tushunchalar, muammolar va insoniyatning umume'tirof etilgan madaniy-tarixiy yutuqlarini o'rganishni ta'minlovchi metodologik tarkibiy qismlarni kuchaytirish;

Mustaqil malaka oshirish o'quv kurslari mazmunini tezkor yangilab borishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilarni belgilash mumkin:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosini yangi bosqichga ko'tarish, uzluksiz ta'lim tizimi islohotlari jarayonida erishilgan natijalarni rivojlantirish;

- jahon talablariga tenglashuvchi natijalarga erishishga yo'naltirilgan barqaror innovatsion ta'lim tizimiga o'tish;

- ta'limning mazmuni va texnologiyasini madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika, texnologiyaning zamonaviy yutuqlari va istiqbol yo'nalishlariga mos ravishda uzluksiz va muttasil rivojlantirib borishni ta'minlash;

- zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda uzluksiz ta'lim tizimi sifat ko'rsatkichlari o'sishini ta'minlovchi o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ta'limiy tamoyillari va yo'nalishlarini tatbiq etish;

- sifatli ta'limiy xizmatni amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlagan holda tinglovchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon eta olish imkoniyatlarini kengaytirish;

- pedagogik kadrlarning kasbiy salohiyati, umumiy madaniyati, ijtimoiy tayyorgarligi darajasini o'stirish orqali ta'lim tizimida pedagogik faoliyat va boshqaruv samaradorligini oshirish.

Mustaqil malaka oshirish o'quv materiallarini yangilab borishni quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiq:

- huquqiy-me'yoriy hujjatlar;
- ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- xorijiy ta'lim tajribasi;
- fan yangiliklari;
- ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollik.

Har bir yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan ishchi guruhlar muayyan ishlarni amalga oshirishi, ya'ni har bir yo'nalish bo'yicha professor-o'qituvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar asosida resurslarni shakllantirishi, unga mos holda foydalanishga tayyorlashini bosqichlarga ajratishi zarur bo'ladi.

Jumladan, huquqiy-me'yoriy hujjatlar yo'nalishi bo'yicha yangilanayotgan o'quv materiallar:

1-bosqichda: Oliy ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, oliy ta'limga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va qarorlari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyruqlari mohiyatidan kelib chiqib, ularni pedagogik faoliyatda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishinni ta'minlovchi resurslar.


2-bosqichda: Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar bilan bir qatorda Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom, Oliy ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom, Oliy ta'lim muassasasi fakulteti, kafedrasi, oliy ta'lim muassasasiga professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish to'g'risidagi nizomlar va boshqa me'yoriy ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlovchi resurslar.

3-bosqichda: Dars beradigan o'quv fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv va ishchi o'quv rejalarini, o'quv-uslubiy majmua, fan dasturi va boshqa uslubiyatni ishlab chiqish malakasiga ega bo'lishini ta'minlovchi resurslar.

4-bosqichda: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari va qarorlari asosida vazirlik va yuqori tashkilotlar topshiriqlariga muvofiq turli xujjatlar loyihalari, ta'limni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlovchi resurslar sifatida ishlab chiqilishi lozim.

Xuddi shuningdek, yangilanayotgan resurslar professor-o'qituvchilarning ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; xorijiy ta'lim tajribasi; fan yangiliklari; siyosiy-huquqiy tayyorgarlik bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil malaka oshirish o'quv materiallarini yangilash jarayonini tinglovchilar shaxsiga yo'naltirgan holda maqsadga muvofiq tashkil etilishi tinglovchilarning motivlari yuqori bo'lishi, o'z kasbiy mahoratini orttirish maqsadida faol izlanishlari orqali mazkur o'quv yurtlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ortishiga zamin tayyorlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil, 16 fevraldagi 25-sonli qarori.
2. Begimkulov U.SH. Malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //”Xalk ta’limi” jur. № 6, 2004 - 132-137 betlar.
3. Begimkulov U.SH. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta’limni tashkil etish // J. Maktab va hayot. – Toshkent, 2006. – № 6. – B. 25-27.
4. Rashidov X.F. Kontsepsiya razvitiya sistemo’ povo’sheniya kvalifikatsii i perepodgotovki kadrov v Respublike Uzbekistan. –Toshkent: Fan, 1998. – 158 s.
5. Selezneva N.A., Tatur Yu.G. Proektirovanie kvalifikatsionno’x trebovaniy k spetsialistam s vo’sshim obrazovaniem / Ucheb. posobie. – Moskva: Issled. Tsentr Gosobrazovaniya, 1991. – 65 s.

Rezyume

V stat’be rassmatrivayutsya mexanizmo’ operativnogo obnovleniya sodержanie uchebno’x resursov dlya kursov povo’sheniya kvalifikatsii pedagogov, napravlenii informatsionnogo napolneniya uchebno’x materialov po organizatsii samostoyatel’nogo povo’sheniya kvalifikatsii.

Resume

The article deals with mechanisms of rapid updating the content of educational resources for training courses of teachers, the direction of content of educational materials on the organization of self-training.